

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
FANIGA OID BILIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Yusupova Munis Shuhratovna

Namangan viloyati Namangan shahar

75-sonli mакtabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflar uchun milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan ona tili va o'qish savodxonligi faniga oid bilimlarini yanada takomillashtirish usullari to'g'risida so'z boradi hamda dars ishlanma asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: didaktik o'yinlar texnologiyasi, interfaol metod, ta'lim, yondoshuv, ko'nikma, dars, innovatsiya, texnologiya.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamiagi islohotlarning taqdiri yoshlarning yuksak ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy fazilatlariga bog'liq. Ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim.

Zamonaviy ta'limni amalga oshirishning zarur sharti o'quv fanlari bo'yicha axborot manbalari, shu jumladan, o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan tez va qulay foydalanish imkonini beruvchi turlaridan har bir o'quvchi va o'qituvchi erkin foydalana oladigan sharoit yaratishdan iborat. Ya'ni hozirda sifatlari ta'lim berish uchun an'naviy ikkita tomon - o'qituvchi o'quvchiga zarur axborotlarni yetkazib turuvchi xizmatdan iborat faoliyatni tashkil qilish zarur. Ta'limni tashkil etish va yo'lga qo'yish borasidagi o'zgarishlar innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlarni yuzaga keltiradi. Interfaol metodlar erkin fikrlaydigan, mustaqil izlanadigan o'quvchilarni shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ta'lim berishning bu metodida o'qitish jarayonidagi asosiy ish o'qituvchilar tomonidan amalga oshirishi, ular ta'limning ob'yekti emas, balki sub'yekti, ya'ni xuddi o'qituvchi singari ijrochisi bo'lishi ko'zda tutiladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlar va yozish xamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. O'quvchilarda ushbu sifatlarni tarkib toptirishda o'qituvchining mahorati, darslarda interfaol metodlar zamонавиу axborot texnologiyalarining o'rni beqiyosdir. Quyidagi dars ishlanmada yuqoridagi usullardan foydalanib dars o'tishning avfzalligi hamda tartibi ko'rsatib o'tilgan.

Mavzu: Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman!

Maqsadlar:

a) ta'limiylar: o'quvchilarni o'tilgan mavzu bilimlarini mustahkamlash va yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish ona tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish va ularning nutq ravonligi haqida ma'lumotlar berish

b) tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishslash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish;

d) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, mavzu doirasida lug'at boyligi hamda yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o'quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Nutqqa oid kompetensiya:

Og'zaki nutq; atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og'zaki tasvirlay oladi; o'quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq; bo'g'in ko'chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so'zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g'oyasini aytta oladi

Lingvistik kompetensiya: bo'g'in ko'chirish va bosh harflar imlosiga rioya qiladi; so'zlarga so'roq berish orqali ularni turkumlarga ajratadi va nutqda to'g'ri qo'llay oladi

Darsning metodi: "Uchinchisi ortiqcha" didaktik o'yini, "Muammoli vaziyat" metodi, QR-kodli test va topshiriqlar, og'zaki (suhbat, savol-javob).

Darsning vositalari: o'quv dasturi, dars rejasи, darslik, mashq daftari, "O'qituvchi kitobi", xattaxta, texnik jihozlar,darslikning multimedya ilovasi.

Shakl: jamoa,guruhda ishslash,hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib,hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib,dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

T/R	Bo'limlar	Vaqti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O`tgan mavzuni mustahkamlash: Mavzu: Vatanparvarlik nima?

2. Suhbat va savol-javob yordamida uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi:
 1. Hakka nima uchun shaqilladi? Shaqillash nima?
 2. Hakka kimga qanday ish qilishni buyurdi?
 3. Hakkating “Mehmon kelgan uyda – to‘y” deganfikriga qo’shilasizmi?
 4. Uyingizga mehmon kelganida oila a’zolariningiz qanday ishlarni bajarishadi?

Siz-chi?

Savol-javob bilan birga she’r matni yuzasidan **“O’rnini top” ta’limiy o’yini** o’tkaziladi. Buning uchun o’quvchilar qiyofadosh so’zlarni chiziqchalar yordamida o’rniga qo’yishlari kerak bo’ladi.

III. Yangi mavzu bayoni: Dastlab o’quvchilarga savol beriladi.

Rasmlarga qarang. Olimlarning nima ish qilayotganini ayting va fikr yuriting.



2.2.4-rasm.

O’quvchilar o’z fikrini bildiradi. O’qituvchi esa ularni fikrini umumlashtirib to’ldirib o’tadi. So’ngra quyidagi savollar beriladi:

1. Olimlar yana qanday ishlar bilan shug’ullanishadi?
2. Nima deb o’ylaysiz, olimlar bo’lmasa, dunyoqanday bo’lar edi?
3. Sizningcha, O’zbekistonda yaxshi olimlar ko’paysa, qanday o’zgarishlar ro’y beradi?
4. Siz ham olim bo’lib, O’zbekistonni yanada rivojlantirishni istaysizmi?
5. Qaysi sohaning yetuk mutaxassisini, olimi bo’lishni xohlaysiz? Nima uchun?

“Nobel mukofoti” audiomatnini tinglanadi.

A screenshot of the Audiomatn application interface. At the top, there are tabs for 'Audiomatn' (highlighted), '1-qism' (with a checkmark), '2-qism', and 'Video'. Below the tabs is a list of five questions in a scrollable window:

1. Vatanparvarlik nima? | Oshxonamiz raʼsini
2. Hatta bo’ham, Nobel mukofotini olaman? | Nobel mukofoti
3. Maktabim – ikkinchi uyim | Moktab
4. Tug’ilgan kuning bilan! | Sharikning tug’ilgan kuni
5. Mening mahallam | Hashor – oliga yaratish

At the bottom of the screen are control buttons for playback: a left arrow, a play button, a pause button, and a right arrow.

2.2.5-rasm. Multimediya ilovasidan lavha

Audiomatn yuzasidan “Muammoli vaziyat” metodi qo’llaniladi. O’quvchilar 3 ta kichik guruhga bo’linadi. Agar siz kelajakda olim bo’lsangiz qanday ishlarni amalgalashirgan bo’lar edingiz? savoliga atroflicha javob beradilar. O’qituvchi ushbu savolga berilgan javoblarni umumlashtirib xulosa yasaydi.

Qoida

Yulduz va sayyoralar, turli osmon jismlariga atab qo'yilgan nomlar bosh harf bilan yoziladi. Masalan: Oy, Mars kabi

Dam olish daqiqasi

Daraxt tikka o’sadi,
Yonga shoh chiqaradi.
Quyoshdan nur oladi,
Yerga soya soladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: Yangi mavzuni mustahkamlash uchun “Uchinchisi ortiqcha” didaktik o’yinidan foydalanamiz. Bunda biz o’quvchilarga quyidagi rasmlarni ko’tsatamiz. Ular mavzudan kelib chiqib, 4 ta mavzuga aloqador va 1 ta aloqasi bo’lmagan rasmni topishlari kerak bo’ladi. Hamda ularga ta’rif beriladi.



2.2.6-rasm. “Beshinchisi ortiqcha” didaktik o’yinidan lavha

Bajarilishi yuzasidan ko’rsatma beriladi: so’zlarni o’qing, so’z boshida kelgan undoshni to’g’ri ayting. Doskada va mustaqil bajariladi. Multimediya ilovasida keltirilgan o’yinlardan ham foydalanoladi.

Mavzu yuzasidan o’quvchilarga quyidagi QR-kodli rasmi test hamda boshqotirma beriladi. QR-kodli rasmi test o’quvchini dunyoqarashini oshirishga, ularni mustaqil fikr yuritishiga xizmat qilsa, boshqotirma esa ularni ilmiy tafakkurini oshirib, topqirlik qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda o’quvchilarda innovatsiyaga bo’lgan qiziqishni oshiradi. Shu bilan bir qatorda bu kabi o’zgarishlar darslikning o’qimishlilagini oshiradi, darslik sahifalarining ixchamlashishiga olib keladi va, eng muhimi, o’quvchida fanga qiziqishni orttiradi.

1) Novel mukofotini toping?



A)



B)



D)

2. Kasbga mos so'zni toping?



A) Oshpaz




B) Ona



D) Do'st

2. Bo'g'lnlarni to'g'ri birlashtirsangiz "Katta bo'lsam, Nobel mukofotini olaman!" mavzusiga oid so'zlar hosil bo'ladi.



V.O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.: Darsda faol qatnashgan o`quvchilar rag`bat kartochkalari bilan rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa: Hikoyani o`qish, « Kelajakdagi kasbim » mavzusida kichik matn tuzish.

Xulosa qilib aytganda, bugungi har qanday zamonaviy pedagogik texnologiyalar o`z mohiyatiga ko`ra ta`lim oluvchilarda o`quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoa holida ishlash, o`rganilayotgan mavzu, muammolar bo`yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o`z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g`oyalarni yanadaboyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag`batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Boshlang`ich ta`lim Konsepsiysi / Mualliflar: Q.A.Abdullaeva, R.G.Safarova, M.O.Ochilov, K.N.Nazarov, N.U.Bikbaeva, M.A.Zaynitdinova // Boshlang`ich ta`lim j. – T., 2018. № 6. – 12-18-b.
2. Safarova R., Musaev U., Musaev P., Yusupova F., Nurjanova R. O`zbekiston Respublikasida umumiy o`rta ta`lim strategiyasi muammolari va ta`lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiqetish yo`llari. – T.: “Fan”, 2015. – 85-86-b.
3. Usmonov S. Boshlang`ich sinflarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishningpedagogik asoslari: Ped. fanl. nomz diss. avtoref. – T.: 2014. – 24 b.
4. Tarbiya / Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi M.N.Aminov, mas`ul muharrir A.M.Majidov. – T.: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2010. – 528 b.